

## YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI TARBIYALASH MEXANIZMLARI, USLUBLARI, SHAKL VA VOSITALARI

**Mamanazarov Solijon Sherzodbek o'g'li**

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi talabasi

**Nigmanova Umida Baxramovna**

Ilmiy raxbar:

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash mexanizmlari, uslublar, shakl va vositalar xaqida so'z yuritiladi. Ularni atroflicha taxlil etib o'rganiladi. Zamonaviy tarbiya metodlari va tarixan shakllanib kelgan tarbiya metodlari o'zaro taqqoslanadi.

**Kalit so'zlar:** yuksak ma'naviyat, tarbiya mexanizmlari, tarbiya uslublari, tarbiya shakllari, tarbiya vositalari.

Farzandimiz o'zligini birdaniga tanib olmaydi. Unda bir kechada "Men" tuyg'usi tug'ilmaydi. Borliqni tanishda faqat o'zining fikriga asoslanmaydi. Atrof-muhit ta'sirini chetlab o'tolmaydi. Buni biz bilamiz va o'g'il qizlarimizning do'stlari bilan ba'zan qiziqib ham qo'yamiz. Uning do'stlari ta'bimizga o'tirmasa yoki do'stning o'tanasini yoqtirmasak, farzandimizni bunday do'stdan uzoqlashtirishga urinamiz. Bunday vaziyatda biz da'voimizni isbot etolmaymiz. "U bilan o'ynama, uchrashma", deb talab qilish bilan cheklanamiz. Bunday jarayonni hammamiz boshimizdan kechirganmiz. "Falonchi odobsiz, u bilan do'stlashma", deyish bizlarga ota meros. Do'st tanlash hayotdagi eng murakkab masalalardan biri. Do'st masalasida bir-ikki kuymagan odam topilmasa kerak. Shuning uchun ham farzandimizning do'stlari bizni bafarq qoldirmaydi.

Biz ko'proq "qozonga yaqin yurma – qorasi yuqadi" maqolini amalga oshirish payidamiz. O'zaro munosabatlarning ikki xil tizimini kuzatish mumkin: birinchisi – "o'smir-kattalar", ikkinchisi – "o'smir-o'smir". Bularning har ikkalasi bola uchun ikki olam. Birida u tobe', kuzatadi, o'rganadi, ma'qulini tanlaydi. Ikkinchisida o'rganganini tadbiiq etishga urinadi. Shu bois o'smirning tengdoshlariga munosabati kattalarning e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Bu shunchaki o'zaro munosabat emas, oddiy harakatlar zahirida ham jismoniy, ham ruhiy-ma'naviy kurash mavjud.

Bola tengqurlari bilan bo'lgan bu g'oyibona olishuvda o'zining nimalarga qodir ekanini anglab boradi. Bu jarayon unga qiziqarli tuyulib, g'ayrati oshib borishi ham mumkin. Yoki aksincha, tengqurlari orasida o'zi xohlagan maqomga erisholmasligiga ko'zi yetsa tushkunlikka tushadi, odamovlikni kasb qiladi. O'rtoqlarining ta'sirida farzandingiz birdaniga o'zgarib qolishi mumkin.

Siz tarbiya sohasida eplolmagan ishni o'rtoqlari amalga oshirib bersa, ajablanib yurasiz. Siz o'g'lingizning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini, sog'lom, baquvvat o'sishini istaysiz. Lekin tanbal va erinchoq bolangiz so'zingizga kirmaydi. O'zingizcha kuyib yurganingizda bir kuni ertalab qaraysizki, u barvaqt o'rnidan turadi, ko'chaga chiqib yuguradi. Siz ajablanasiz, sababini aniqlamoqchi bo'lasiz. Do'stlarining ta'sirida bola yaxshi tomonga o'zgargani kabi yomon tomonga ham burilishi hech gap emas. Ota-ona do'stga nisbatan to'g'ri tanbeh bersa ham farzand buni o'z vaqtida qabul qila olmaydi.

“Hadeb bolangni ko'ngliga qarayverma”, degan naqlni hammamiz bilamiz va hammamiz bu nasihatga amal qilmaymiz. Ayniqsa puldorlar bu o'gitni eshitgilari ham kelmaydi. Agar tanbeh bersangiz, “Men shu narsalarni ko'rmay o'sdim, bolam ko'rsin”,-deb o'zlarini oqlashadi. Bolani juda taltaytirish, g'oyat kiyintirish, boshqalardan ajratgan holda o'stirishning halokatli jihatlarini bizdan avvalgi tarbiyachilar ko'p ta'kidlashgan. Biz bolalar va o'smirlarni tarbiyalashdagi mashaqqatlarni yozib o'tiribmiz. Bolaga nisbatan ota-onani tarbiyalashning g'oyat og'ir ekanini aytmasak ham bo'ladi. Bolaga haddan tashqari oro bermoqlik uni xudbinlik, kibr to'rlariga o'rabgina qolmay do'st tanlashda ham adashtiradi. Uning atrofida chin o'rtoqlar emas, manfaat do'stlari to'plana boshlaydilar. Bunday bola ulg'ayganida chinakam do'st topolmay qiynaladi. Do'st niqobidagi munofiq va xoinlardan aziyat chekadi.

Har qanday zamonaviyliklarga yo'l qo'yib berish, bu yoshdagi talabalarning barkamollik darajasini oshirmaydi. Bu yoshdagi talabalarning barkamollik darajaini rivojlantirib borish uchun professor-o'qituvchilarimiz eng avvalo, talabaning kasbiy savodxonligi bilan qiziqishi, ilmiy va ilmiy izlanish ko'nikmalarini malakaga aylantirib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari asosida yuksak ma'naviyatli shaxsni voyaga yetkazishda ta'lim jarayonidagi tadbirlarni olib borish uchun amalga oshiriluvchi vazifalarni quyidagicha belgiladik: Yoshlarda “Men o'zbek farzandiman” deb g'urur va iftixor bilan yashashga qaratilgan dunyoqarashni shakllantirishga erishish. Ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, yoshlarni milliy istiqloq g'oyasi asosida birlashtirish;

Shu g'oya asosida ta'lim muassasalarida vatanga, xalqimiz tanlagan yo'lga sodiqlikni shakllantiri; O'quvchi - talabalarda milliy qadriyatlar xalqimizning azaliy

urf-odatlari bilan uyg'unligi, barcha odamlar, jamoat tashkilotlari, harakatlar faoliyatini birlashtirishga yo'naltirilganligiga doir munosabatni shakllantirish; Turli mafkuraviy tazyiqlardan himoyalana olish ko'nikmalarini tarkib toptirish; Yangicha fikrlaydigan fozil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini his etadigan shaxsni tarbiyalashga erishish; O'quvchi - talabalarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish;

O'quvchilarda sabr-toqatlilik, chidamlilik, shukronalik, ertangi kunga ishonch tuyg'usini tarbiyalash; Har qanday mashaqqatlarni yengib o'tish, tinimsiz mehnat qilishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; Bugungi barkamol avlodda keljikka ishonch hissini tarkib toptirish; Eskicha dogmatik fikrlashning zararini tushuntirish; Yoshlarga yangicha fikrlash zaruratini tushuntirish; Yoshlar tafakkurini milliy g'oya asosiy tamoyllari bilan qurollantirish vositalaridan samarali foydalanish; Boqimandalik kayfiyatini zararini ko'rsatuvchi misollar keltirish; Vatanga mehr g'oyasi bilan sug'orilgan millatchilik va shovinizmga qarshi kurashadigan yoshlarni tarbiyalash; Ta'lim jarayonida, targ'ibot tashviqot ishlarida cadoqat, muhabbat va mardlik e'zozlashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish; Yoshlarda tarix bilan, o'tmish obro'si bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish. O'tmish obro'si bilan yashab bo'lmasligini tushuntirish; Yoshlarda voqea va hodisalarga erkin munosabat bildira olish malakasini shakllantirish; Tashqi siyosat va jahon hamjamiyatida O'zbekiston o'rni va mavqeini to'liq idrok eta olish fazilatlarini shakllantirish; Barcha ta'lim muassasalarida murabbiylarning o'quvchi - talabalarning oilalari bilan hamkorligini ta'minlash; Turli usullardan foydalangan holda axborot almashish, o'quvchi - talabalarning davomat va o'zlashtirishi haqida ota-onalarni xabardor qilish; An'anaviy va innovatsion qarashlarni uyg'unlashtirish; Mustaqillikning erkin tafakkur rivojida siyosiy-huquqiy kafolat sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berish; Ziyoratgohlar, maqbaralar, madaniy yodgorliklar, muzeylarga sayohat uyushtirishni tashkil etish; O'quvchi -talabalarda milliy o'zlikni anglash, g'urur va iftixor hissini yuksaltirib borish; Ta'lim va tarbiyaning yangi shakl va uslublaridan foydalangan holda yurtning o'tmishi va hozirgi kuni bilan faxrlanish, mamlakat manfaatlarini himoya qilishga intilish kabi fazilatlarni shakllantirish. Bu boradagi metodlarni amalga oshirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida milliy istiqloq – g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirishning barcha yo'nalishlarini avvalan bor o'zimiz ilmiy tarzda anglab olishimiz kerak bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Nigmanova Umida Baxramovnaning “Uzluksiz ta’lim tizimida shaxs ma’naviyatini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi – TDPU-2013
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. - T.: O‘zbekiston, 1996
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.